

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2021- yil yanvar-iyun

(dastlabki ma'lumot)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2021- yil yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2646,9 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **9,5% ga o'sdi**


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadi va o'rtacha oylik ish haqi.

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Viloyat bo'yicha - jami	157 024	2377,9	2646,9
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	19 703	363,7	3190,4
Qurilish	5 793	98,9	2926,8
Savdo	2 339	28,9	2007,0
Tashish va saqlash	13 253	296,5	3951,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	418	4,2	1663,5
Axborot va aloqa	1 219	19,4	2595,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3 005	114,2	6198,0
Ta'lim	61 194	740,4	2128,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	27 099	358,0	2277,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2 917	38,9	2320,8
Boshqa faoliyat turlari	20 084	314,8	2599,2

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi ulushi jamiga nisbatan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (**234,2** %), tashish va saqlashda (**149,3** %), sanoatda (**120,5** %), qurilishda (**110,6** %), axborotlashtirish va aloqada (**98,1** %), san'at ko'ngil ochish va dam olishda (**87,7** %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (**86,1** %), ta'limda (**80,4** %), savdoda (**75,8** %), va boshqa yo'nalishlarda (**98,2** %) hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



2021- yil yanvar-iyun


(dastlabki ma'lumot)

Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Buxoro viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida **4028,5** ming so'mni (152,2 %), Kogon shahrida **3685,8** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 139,2 %), Buxoro shahrida **2920,9** ming so'mni (110,4 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Qorako'l tumani da **1927,7** ming so'mni (72,8 %), Peshku tumanida **1863,6** ming so'mni (70,4 %) va Vobkent tumanida **1812,7** ming so'mni (68,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



**Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	2418,2	2646,9	109,5
Buxoro sh.	2484,3	2920,9	117,6
Kogon sh.	3127,7	3685,8	117,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1985,4	2166,9	109,1
Buxoro	2045,7	2363,1	115,5
Vobkent	1751,8	1812,7	103,5
G'ijduvon	1920,3	2294,9	119,5
Kogon	2277,9	2361,5	103,7
Qorako'l	2636,0	1927,7	73,1
Qorovulbozor	3766,7	4028,5	107,0
Peshku	1846,0	1863,6	101,9
Romitan	2331,3	2311,4	99,1
Jondor	1886,4	2148,9	113,9
Shofirkon	2000,6	2022,5	101,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha - jami	2418,2	2646,9	109,5
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2843,9	3190,4	112,2
Qurilish	2477,8	2926,8	118,1
Savdo	1830,7	2007,0	109,6
Tashish va saqlash	3519,7	3951,9	112,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1809,3	1663,5	91,9
Axborot va aloqa	2516,6	2595,7	103,1
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	4787,4	6198,0	129,5
Ta'lim	1933,2	2128,2	110,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2279,5	2277,8	99,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1871,5	2320,8	124,0
Boshqa faoliyat turlari	2372,5	2599,2	109,6

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "2021- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2021- yilning 1-fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **747 300** so'mni tashkil etadi. .

